




ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/oijpl>



YOUTH POLITICAL CULTURE IN UZBEKISTAN AS THE MAIN FACTOR OF STATE MODERNIZATION

Abdulrashid Anvarov

researcher

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: abdurashid.anvarov@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: political culture, modernization, representative democracy, national development, political consciousness, national consciousness, youth political culture.

Received: 28.06.24

Accepted: 30.06.24

Published: 02.07.24

Abstract: The article describes about the main factors in the development of the political culture of youth in modern Uzbekistan and the role of the political culture of youth in the process of modernization of public administration.

The article discusses the role of the young generation in the society of Uzbekistan, issues of increasing their political activity, and the systemic formation of political immunity to various ideas.

O'ZBEKİSTONDA YOSHLAR SIYOSIY MADANIYATI DAVLAT MODERNİZATİYASINING ASOSIY OMILI SİFATIDA

Abdulrashid Anvarov

tadqiqotchi

O'zbekiston Milliy Univertiseti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: abdurashid.anvarov@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: siyosiy madaniyat, moderenizatsiya, vakillik demokratiyami, milliy rivojlanish, siyosiy ong, milliy ong, yoshlar siyosiy madaniyati.

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda O'zbekistonda yoshlarning siesiy madaniyatini rivojlanishining asosiy omillari va yoshlar siyosiy madaniyatining davlat boshqaruvini moderenizatsiya jarayonida tutgan o'rni xaqida so'z yuritiladi.

Maqolda O'zbekistonda yeshlarning jamiyatda tutgan o'rni, ularning siyosiy faolligini oshirish masalalari, har hil turdag'i yod bulgan g'oyalarga siyosiy immunitetni tizmiy shakllanishi masallari ko'rib chiqilgan.

МОЛОДЕЖНАЯ ПОЛИТИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА В УЗБЕКИСТАНЕ КАК ГЛАВНЫЙ ФАКТОР МОДЕРНИЗАЦИИ ГОСУДАРСТВА

Абдулрашид Анваров

Исследователь

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

E-mail: abdurashid.anvarov@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: политическая культура, модернизация, представительная демократия, национальное развитие, политическое сознание, национальное сознание, молодежная политическая культура.

Аннотация: В данной статье говорится об основных факторах развития политической культуры молодежи в современном Узбекистане и роли политической культуры молодежи в процессе модернизации государственного управления.

В статье рассматриваются роль молодого поколения в обществе Узбекистана, вопросы повышения их политической активности, системного формирования политического иммунитета к различным идеям.

KIRISH

Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida yoshlar siyosati ustuvorlik kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi aholisining 18 yoshdagilar soni 40 foizni, 30 yoshgacha bo‘lganlar esa 64 foizni tashkil qiladi. Jamiat hayotining demokratlashuvi, modernizatsiyalash jarayonlari aholining katta ijtimoiy qatlarni tashkil etadigan yoshlarning ijtimoiylashuviga katta ta’sir ko‘rsatadi. Yoshlar – jamiatning tub negizi, aholining ilg‘or qatlami, kelajakning ishonchli egalaridir. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, har bir davr yoshlarining bilim darajasi, dunyoqarashi, o‘y-fikri, ma’naviy qiyofasiga qarab o‘sha jamiatning ertangi kunini aniq tasavvur etish mumkin. Mustaqillikka erishilgach, 1991 yilning 20 noyabrida “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi munosabati bilan mamlakatimizda yoshlarga e’tibor masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Davlatning bu jarayondagi asosiy vazifasi – yoshlarning jamiatga turli xil salbiy oqibatlarsiz kirib kelishini ta’minlash, ularning o‘z huquq va erkinliklarini to‘la amalga oshirishlarini kafolatlashdan iborat.

ASOSIY QISM

Siyosiy madaniyat masalalarini tadqiq etgan o‘zbek olimlari O. Otamuratov, I.Ergashev, Sh.Paxrudinov, N.Jo‘raev, S.Jo‘raev, A. Qodirov, M. Qirg‘izboev, T.Odilkoriev, Sh.G‘oyibnazarov, B.To‘ychiev, T.Alimardonov, O.Jumaev, B. Omonov, G.Sherniyozova, A.Xaydarov, U.Muhammadiev, O.Musaev

Yoshlar muammolarini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etgan olimlar G.Gerouks, M.A. Meyls, I.S.Kon, K. Mangeym, A.Lukov, A.Rudakov, P.I.Babochkin, D.Plotnikov, S.A.Bikov, L.A.Juravleva, O.I.Ivanov, I.G.Vasilev, S.N.Ikonnikov, A.I. Kovaleva, V.A.Lukov, V.V.Nexaev.

Siyosi madaniyatining konseptual asoslarini tadqiq etgan olimlar R. Dalton, L. Pay, D.Bolindjer, V.F. Devison, P.Laynvardjer, P.Serio, A. Peshe, P.Anri, R. Bart, E.I.Sheygal, A.P. Chudinov, K.V.Nikitin.

Ilmiy maqola mavzusini yoritishda ob'ektivlik, tizimlilik, qiyosiy-tarixiy tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, analiz va sintez kabi usullarga tayanilgan

2017 yil 5 iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Farmonga binoan, yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini tubdan isloh etish maqsadida O'zbekiston "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati negizida O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etildi. O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil topgan kun – 30 iyun sanasi mamlakatimizda "Yoshlar kuni" sifatida nishonlanadi. Yoshlar ittifoqiga 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasidagi islohotlarda yoshlar faolligini yanada oshirish bilan bog'liq bir qator yangi vazifalar belgilandi.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi respublikamizda yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishida davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorlikni ta'minlovchi, "Yoshlar – kelajak bunyodkori" shiori ostida professional faoliyatni amalga oshiruvchi tuzilmaga aylandi. Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etuvchi vakolatli idoralar faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratini tashkil etish, natijasi bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rish maqsadida O'zbekiston yoshlar ittifoqining huquqiy va amaliy vakolatlari kengaytirildi, tegishli imkoniyat va imtiyozlar berildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devonida Yoshlar siyosati masalalari xizmati tashkil etilib, unga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi – O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi raisi rahbarlik qilishi belgilab qo'yildi. O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi raisi o'z lavozimiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadigan Senat a'zosi hisoblanadi.

Siyosatshunoslarning qayd etishicha, 11 yoshdan 13 yoshgacha bo'lган bolalarda siyosiy tafakkur paydo bo'lib, 16 yoshdan 18 yoshgacha u mo'tadillashish holatiga keladi. Buning ustiga, bugun fan, texnika va texnologiyaning yuksak taraqqiyoti hamda ommaviylashuvi yoshlarning kuchli siyosiy axloqiy bosim ostida yashashlariga sabab bo'layotganligini nazardan qochirmaslik lozim. Ayniqsa, internet, mobil telefonlarining yuksak darajada rivojlanganligi, yoshlarning ongi

va qalbini egallashga qaratilgan xarakatlarining kuchayganligi ayrim yoshlarning ma'naviy-axloqiy jihatdan zaiflashuviga o'zining ta'sirini o'tkazmoqda. Manbalarda keltirilishicha, bugungi kunga kelib, internet tarmog'ida ma'naviy-axloqiy tubanlikni targ'ib etuvchi sahifalarning soni bir necha yuz millionni tashkil etadi. Birgina AQSh davlati bir yilda 700 ming qo'shiq, 6 ming klipni suratga olib tarqatmoqda. Suratga olingan qo'shiq va kliplarda, asosan, ommaviy madaniyat va hayosiz ko'rinishdagi illatlar targ'ib-tashviq qilinmoqda. Bu davlat 15 mingdan ortiq fahsh jihatlarni namoyon qiluvchi internet saytlarini yaratib qo'ygan. Hozirda global tizim tarkibida buzg'unchilik, qo'poruvchilik maqsadini ko'zlaydigan kuchlarning 7000 dan ortiq veb-sahifalari ishlab turibdi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha internetdan eng ko'p foydalanuvchilar aynan 21 dan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar hisoblanadi". Shunday ekan, yoshlar siyosiy madaniyatini izchillik bilan takomillashtirib borishga jamiyatda ehtiyoj oshib boradi. Yoshlarimiz siyosiy jarayonlardan xabardor, yangi islohotlardan ko'zlangan maqsad va ularning amalga oshish jarayonlari haqida ma'lum qarashlar va tasavvurlarga ega bo'lishi kerak.

Jamiyatdagi ko'plab muammolar tahlili milliy o'zlikni anglash masalasini yana kun tartibiga qo'ymoqda. Mustaqillik yillarda bu borada birmuncha siljishga erishildi. Urf-odatlar, qadriyat, diniy e'tiqodimiz tiklandi, muqaddas maskanlar, masjid-u madrasalar, tarixiy obidalar qayta ta'mirlanib, xalqimizga qaytarib berildi. Fuqarolarimiz ma'naviy-ruhiy olamida yangilanish, poklanish va yurti uchun g'ururlanish hissi paydo bo'ldi. Ta'lim-tarbiya dargohlarida yoshlarning ongiga qadimiy merosimizni bilmasdan turib, o'zlikni anglash mumkin emasligi tushuntirilmoqda. Zero, milliy o'zlikni anglash – o'tmish bilan kelajakni bog'lovchi ma'naviy ko'prik ekanligi yoshlar ongiga singdirilmoqda .

Bizga ma'lumki, siyosiy madaniyat insonning jamiyatda mavjud bo'lган siyosiy tajriba va an'analarni o'zlashtirish darajasi ham bo'lib, uni qo'llash siyosiy hayotdagi vorisiylikni ta'minlay olishi lozim. Jamiyatning har bir a'zosi ijtimoiylashuv va kamolotga erishish jarayonida ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatida shakllanadi, shuningdek, jamiyatda xukmron bo'lган ijtimoiy-madaniy tizimning asosiy xususiyatlarini o'zida uyg'unlashtiradi va umumlashtiradi. Ayni paytda, har bir individ siyosiy madaniyat ifodalovchisi bo'lib, u siyosiy-madaniy tizimning umumlashtiruvchi, birlashtiruvchi qismi, deb qaraladi.

Sobiq Sho'ro tuzumi davrida shaxs davlat tazyiqi ostida yashagan. Shuning uchun fuqaro boqimandalikka moslashganligi bois, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishga xalaqit berayotgan paternalistik siyosiy madaniyatning ta'siri seziladi. Hozirgi O'zbekistonning o'ziga xos jihat shundaki, u oyoqqa turmagan yosh davlatdir. Eski tuzumdan meros qolgan sovet mentaliteti hali qisman saqlanib qolgan, ko'pchilik mahalliychilik va millatchilik aqidalari "tuzog'i"dan qutulmagan. Davlat tuzilishi, hatto davlat chegaralari masalasida bahslar hamon davom etmoqda. Bularning barchasi fuqarolardan mas'uliyat va

javobgarlik hissini kuchaytirishni talab etadi. Mamlakatimiz milliy rivojlanish yo‘lida vakillik demokratiyasi yo‘lini tutmoqda. Bu borada, bir tomondan davlatchilikni mustahkamlashga qonuniy intilish; ikkinchi tomondan, fuqarolik jamiyat funktsiyalarini davlat funktsiyalari hisobiga kengaytirish tamoyili namoyon bo‘lmoqda. G‘arb mamlakatlarda nosiyosiy vositalar va institutlar yo‘li bilan hal qilinuvchi ko‘pgina ziddiyatlar bizda hali siyosiyashgan mazmunini yo‘qotmagan.

Ilmiy manbalarning guvohlik berishicha, o‘z hayotini mustaqil qurishni xohlagan inson uchta asosiy omil ta’siri ostida rivojlanadi:

- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dinamikasi;

- o‘zini saqlash, erkin tanlash va o‘zini namoyon qilish qadriyatlari munosabati dinamikasi;

- siyosiy institutlarning demokratlashuvi yo‘lida dinamik intilishi .

Ana shu omillarning shakllanish jarayonini tahlil qilar ekanmiz, shaxs siyosiy madaniyatiga ta’sir etuvchi omillarning birinchisi, siyosiy ong ekanligi ma’lum bo‘ladi. “Siyosiy ong” tushunchasi va mohiyati masalasi respublikamiz olimlari tomonidan chuqr o‘rganilgan. “Politologiya” o‘quv qo‘llanmasida unga quyidagicha ta’rif berilgan: “Siyosiy ong – muayyan individ, guruh, qatlamlar tomonidan siyosiy sohani anglashi, tasavvurlari, bilimlari, baholashi tizimidir. Siyosiy ong – kishilarning siyosiy tizim va hayot, siyosiy munosabatlar to‘g‘risidagi bilimlar, tasavvurlar, maslaklar, e’tiqodlar, o‘zlari yashab turgan siyosiy tuzumga baho berishlari yig‘indisidan iboratdir”. Siyosiy ong davlatning paydo bo‘lishi bilan unda yashayotgan shaxslarda shakllana boshlaydi. Buning negizida davlatning manfaatlarini nazarda tutuvchi siyosatni olib borishi yoki olib bormasligi muammosi ko‘ndalang turadi.

Siyosiy madaniyatni rivojlantirish, uni mamlakatdagi barqarorlikning muhim omili darajasiga ko‘tarish uchun birinchidan, siyosiy ongni rivojlantirish, uni umumsiyosiy manfaatlar ruhiyatida shakllantirish zarur bo‘ladi. Siyosiy ong shakllanmagan bo‘lsa, siyosiy madaniyat haqida fikr yuritib bo‘lmaydi.

Yoshlar siyosiy madaniyati shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarning ikkinchisi, milliy ongdir. Shuni ta’kidlash kerakki, milliy ong alohida muhitda sodir bo‘ladi. Uning shakllanishiga to‘plangan bilimlar, siyosiy va huquqiy g‘oyalar, san’at va madaniyat yutuqlari, axloq, din va ijtimoiy ruhiyat ta’sir ko‘rsatadi. Milliy ong tarixiy tajribani, ajdodlar qoldirgan bilimlar va tafakkur – mantiq usullarini o‘ziga singdirib olgachgina voqelikni o‘zlashtiradi, vazifalarni o‘rtaga qo‘yadi, kelajak loyihalarini tuzadi, millatning butun amaliy faoliyatini belgilaydi. Milliy ong ijtimoiy faoliyat jarayonida shakllantiriladi, milliy ong ham o‘z navbatida unga bevosita ta’sir o‘tkazadi, uni belgilaydi va tartibga soladi, milliy ongning rivoji millat o‘z orzu-maqsadlarini ro‘yobga chiqarish jarayonida tabiatni, jamiyatni va o‘zini o‘zgartiradi .

Yuqoridagi omillarning tahliliga asoslanib, siyosiy madaniyatga ushbu ta’rifni berish mumkin: “Siyosiy madaniyat siyosiy ong, siyosiy tafakkur, siyosiy ogohlik, siyosiy vazminlikni o‘zida uyg‘unlashtirgan xolda shaxs, fuqaro, davlat hokimiyati, ijtimoiy guruuhlar, siyosiy kuchlar umummanfaatlar va maqsadlar yo‘lida o‘z faoliyatlarida amal qilishining ko‘rsatkichini bildiradi”. Mazkur ta’rifimizdagi muhim g‘oya siyosiy madaniyatning shaxs, fuqaro, davlat hokimiyati, ijtimoiy guruuhlar va siyosiy kuchlarning siyosiy beqarorlik yoxud siyosiy mojarolarni hal qilishdagi ijobiy faoliyatining ko‘rsatkichi ekanligini ko‘rsatishda o‘z ifodasini topadi.

Siyosiy madaniyat tizimida, uning takomillashuvida, sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilishida yoshlarning alohida o‘rni bor. Yosh avlodning siyosatga qiziqishi va siyosiy jarayonlarda ishtirok qilishga moyilligi milliy rivojlanish va xalqimiz farovonligi uchun amaliy ahamiyatga ega. Uning mamlakat siyosiy hayoti taraqqiyoti darajalaridan orqada qolishi bir tomondan uning siyosiy beqarorligi uchun xavf-xatar bo‘lsa, ikkinchi tomondan yovuz kuchlar va oqimlarning yoshlarni o‘z izmiga solishlari uchun imkoniyatni yaratib berishi mumkin.

Yoshlar siyosiy madaniyatni umummadaniyatning tarkibiy qismlaridan birini tashkil qiladi va jamiyat hayotida amal qilayotgan siyosiy madaniyat tizimida uyg‘un holda namoyon bo‘ladi. Ana shularni hisobga olib, yoshlar siyosiy madaniyatiga shunday ta’rifni berish mumkin: “Yoshlar siyosiy madaniyati deganda, ularning siyosiy hokimiyat, siyosiy jarayonlarga bo‘lgan munosabatlari, ularni idrok etishdagi siyosiy qarashlar, siyosiy tafakkur va siyosiy faoliyatlarida amal qiladigan madaniyat shakli tushuniladi”. Bu ta’rifdagi asosiy g‘oya yoshlarning siyosiy madaniyatini belgilab beradigan, ularning siyosiy hokimiyatga munosabati, siyosiy jarayonlar rivojiga qarashlari, uni idrok qilishlari va o‘z siyosiy faoliyatlarida ijobiy jihatdan rivojlanishiga hissa qo‘sishdagi ishtiroki ular siyosiy madaniyatlarining muhim ko‘rsatkichi barometri ekanligini alohida ta’kidlashdan iborat.

Yoshlar jamiyat hayotida yetakchi o‘ringa ega bo‘lgan ijtimoiy guruhdir. Ular mamlakatdagi mehnat resurslarining asosiy qismini tashkil etadi va avlodlarning vorisiylik vazifasini bajaradi. Ammo, murakkab globallashuv sharoitida yoshlar siyosiy madaniyatini yuqori darajaga ko‘tarish u qadar oson kechmaydi. Sababi, jamiyatda yoshlar ma’naviyati bilan bog‘liq ko‘plab muammolar to‘planib qolgan. Ayniqsa, chetdan kirib kelayotgan yot g‘oyalar, texnologiyalar targ‘ibotiga doir salbiy xolatlarning avj olayotganligi sir bo‘lmay qoldi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirishga ehtiyojning oshib borishi quyidagilar bilan izohlanadi:

Birinchidan, O‘zbekistonda yangi taraqqiyot strategiyasi yo‘nalishlari belgilab olingan bo‘lib, bu murakkab vazifalarni hal qilish ko‘p jihatdan yoshlarimiz siyosiy madaniyatining qay darajada rivojlanganligi bilan bog‘liq holda kechadi.

Ikkinchidan, mamlakatimizda demokratik qadriyatlar namoyon bo‘lishi bilan bir vaqtida, unga muvofiq ravishda fikrlar xilma-xilligi, siyosiy hokimiyat uchun kurashda o‘z mavqeini mustahkamlashga intilayotgan siyosiy partiyalarning o‘z elektoratlari sonini kuchaytirish va sifatini yaxshilash borasidagi faoliyatlarining ortib borayotganligi;

Uchinchidan, mamlakatimiz yoshlari intellektual salohiyatining oshib borishi jarayonida ularning siyosiy boshqaruvga bo‘lgan qiziqishlari paydo bo‘layotganligi siyosiy madaniyatni izchillik bilan rivojlantirishni talab etadi.

To‘rtinchidan, dunyoda kechayotgan siyosiy beqarorlik, ayrim mamlakatlarda yoshlarni jarayonlarga jalb qilishga bo‘lgan harakatlar, jumladan, millatchilik, ayirmachilik g‘oyalariga berilib ketishi holati kuchayotganligi siyosiy sergaklik va siyosiy ogohlilikni kuchaytirish zaruriyatini oshirmoqda.

Beshinchidan, Sharq mamlakatlarida missionerlik harakati nihoyatda kuchayib, yoshlarni o‘z atrofiga uyushtirishda turli uslub va imkoniyatlardan foydalanilmoqda. Xususan, moddiy jihatdan qynalgan yoki yetim bo‘lgan yoshlarga moddiy yordam ko‘rsatish, oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olayotgan talabalarning kontrakt to‘lovlarini to‘lash, komp’yuuter kursida bepul o‘qitish, komp’yuuter yoki mobil telefonlar bilan ta’minalash kabi tadbirlarni amalga oshirish yo‘li orqali ayrim yoshlarni o‘z atrofiga uyushtirib, ajdodlari e’tiqod qilib kelgan islom dinidan voz kechishga, boshqa dirlarga o‘tish kabi jirkanch maqsadlarini amalga oshirmoqdalar. “Aslida esa missionerlar hech qachon, hech kimga beg‘araz yordam ko‘rsatmaganliklarini unutmaslik lozim” . Demak, siyosiy madaniyati yetarli darajada rivojlanmagan ba’zi yoshlarning missionerlar berayotgan choy-chaqaga, moddiy “yordam”ga og‘ib ketishlari yurtimiz uchun xatarli holat hisoblanadi.

XULOSA

Siyosiy madaniyat tizimida, uning takomillashuvida, sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilishida yoshlarning alohida o‘rni bor. Yosh avlodning siyosatga qiziqishi va siyosiy jarayonlarda ishtirok qilishga moyilligi milliy rivojlanish va xalqimiz farovonligi uchun amaliy ahamiyatga ega. Uning mamlakat siyosiy hayoti taraqqiyoti darajalaridan orqada qolishi bir tomonidan uning siyosiy beqarorligi uchun xavf-xatar bo‘lsa, ikkinchi tomonidan yovuz kuchlar va oqimlarning yoshlarni o‘z izmiga solishlari uchun imkoniyatni yaratib berishi mumkin.

Yoshlarning bugungi siyosiy jarayonlardan xabardorligi, ijtimoiy-siyosiy sohadagi islohotlardan ko‘zlangan maqsadlar va ularning amalga oshish jarayonlari haqida ma’lum qarashlar va tasavvurlarga ega bo‘lishi mamlakatning barqaror taraqqiyoti uchun muhim omildir.

Dunyoda mamlakat taraqqiyoti yer osti zahiralari bilan emas, balki yuksak darajadagi intellektual salohiyatini yuzaga keltirish va ulardan samarali foydalana bilish hisobiga sodir bo‘lmoqda. Xitoy, Yaponiya, Singapur, Janubiy Koreya, Malayziyaning boy tajribasi O‘zbekiston uchun o‘rnak bo‘larli, desak arziydi. Bunday oqilona yo‘ldan yurishda ijtimoiy-innovatsion

tafakkurga ega yoshlar hisobiga jamiyatimiz ijtimoiy guruhlarining sardori bo‘lgan ziyolilar guruhini tezroq shakllantirish vazifasini yechish zarur bo‘ladi.

Yuqoridagi siyosiy-huquqiy tadbirlar natijasida O‘zbekiston yoshlari ijtimoiy-innovatsion faolligining oshib borishi jarayonida ularning siyosiy boshqaruvga bo‘lgan qiziqishlari ham ortib boradi. Bu, o‘z navbatida, yoshlar siyosiy madaniyatini izchillik bilan rivojlantirishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasida yoshlar siyosatini amalga oshirishning dolzarb masalalari // respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 2013 yil 22-23 yanvarъ. –T.: Ma’naviyat, 2013. – B. 221-222.
2. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 27-son, 607-modda.
3. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. Toshkent.: G‘. G‘ulom, 2009. B. 406.
4. Omonov B. Jamiatni modernizatsiyalashning kontseptual assoslari. – T.: Aloqachi, 2019. – B. 169.
5. Ochildev A, Najmuddinov J. Missionerlik: mohiyati, maqsadlari, oqibatlari va oldini olish yo‘llari (yuz savolga – yuz javob). T.: Toshkent Islom universiteti, 2009. 95-b.
6. Shestomolb Ye.B. Lichnostъ i politika. – M.: Politika, 1988. – S. 124.
7. Tulchinskiy G. Politicheskaya kul’tura. Uchebnoe posobie. — M.: Yurayt, 2015. - C. 139.
8. Politologiya. Mualliflar jamoasi. Mas’ul muharrir: s.f.d.mprof. I.Ergashev. Toshkent.: Xalq merosi, 2002. –B.163.